

Date: 25th January-2026

TALABALARDA MA'NAVIY KOMPETENTLIKNI RIVOJLANTIRISHNING
PEDAGOGIK-PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI

Abdullayev Rasuljan Yakupbayevich

Osiyo Xalqaro Universitetida magistir

Ilmiy rahbar: O'rinov Uyg'un Abdullayevich

p.f.d (DSc), dotsent

Annotatsiya: Mazkur maqolada oliy ta'lim sharoitida talabalarning ma'naviy-axloqiy kompetentligini rivojlantirish masalasi axborot-ta'lim muhiti kontekstida ilmiy jihatdan tahlil etiladi. Unda axborot oqimlari kuchaygan sharoitda talabalarda axborotdan oqilona foydalanish madaniyatini shakllantirish, mediamakondagi salbiy axborot xurujlariga nisbatan immunitet hosil qilish hamda ma'naviy yetuklikni ta'minlashning dolzarbligi asoslanadi. BMT va UNESCOning oliy ta'limni modernizatsiya qilishga doir dasturiy hujjatlarida ta'lim sifati, modulli o'qitish va zamonaviy metodlarni joriy etish orqali tarbiyaviy jarayonni kuchaytirish masalalariga berilgan e'tibor yoritiladi.

Maqolada "kompetentlik" va "kompetensiya" tushunchalarining farqli jihatlari nazariy jihatdan izohlanib, ma'naviy kompetentlikni rivojlantirishning pedagogik xususiyatlari: ta'lim va tarbiyaning uzviyligi, shaxsiy namuna va ijtimoiy muhit ta'siri, mustaqil-tanqidiy fikrlashni shakllantirish, refleksiya va o'zini rivojlantirishga yo'naltirish, innovatsion ta'lim texnologiyalaridan foydalanish hamda integrativ yondashuv kabi omillar tizimli bayon etiladi. Shuningdek, Vygotskiy, Dewey, Bloom, Kohlberg, Freire, Erikson, Habermas kabi xorijiy olimlarning nazariyalari asosida ma'naviy-axloqiy kompetentlikning shakllanish mexanizmlari umumlashtiriladi va bosqichli yondashuv zarurligi ilmiy asoslanadi. Tadqiqot natijalari oliy ta'lim muassasalarida ma'naviy tarbiya va axborot madaniyatini uyg'un rivojlantirishga xizmat qiluvchi metodik tavsiyalarni ishlab chiqishda amaliy ahamiyatga ega.

Kalit so'zlar: ma'naviy-axloqiy kompetentlik, ma'naviy yetuklik, axborot-ta'lim muhiti, axborot madaniyati, mediamakon, axborot xurujlari, tarbiya va ta'lim uzviyligi, kompetensiya, kompetentlik, integrativ yondashuv, innovatsion ta'lim texnologiyalari, refleksiya, axloqiy rivojlanish nazariyalari, dialog asosidagi ta'lim.

Kreativlik (ijodkorlik) - bu shaxsning yangi, original, foydali g'oyalar, Talabalarning ma'naviy-axloqiy kompetentligini rivojlantirish metodikasi va axborot muhiti sharoitida ularning ma'naviy yetukligini shakllantirishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Oliy ta'lim muassasalarida axborot ta'lim muhitini kengaytirish, talabalarga axborotlardan to'g'ri foydalanish ko'nikmalarini shakllantirish va ularning ma'naviy yetuklik darajasini oshirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Birlashgan Millatlar Tashkilotining "XXI asrning Oliy ta'limi" Butunjahon deklaratsiyasi va UNESCOning "Oliy ta'limni isloh qilish va rivojlantirish" dasturiy hujjatlarida global miqyosda ta'lim sifatini oshirish, modulli ta'lim tizimini tashkil etish va



Date: 25th January-2026

o'qitishning zamonaviy metodlarini joriy qilish orqali talabalarning ma'naviy-axloqiy tarbiyasini takomillashtirishga urg'u berilgan.

Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohotlar doirasida ma'naviy-ma'rifiy jarayonlarning yaxlit tizimini yaratish, yoshlarni mediamakondagi turli axborot xurujlaridan himoya qilishning tashkiliy va tadqiqiy jihatlarini rivojlantirish muhim vazifalardan biri hisoblanadi. Shuningdek, ommaviy axborot vositalaridan oqilona foydalanish, talabalarda axborotlar bilan ishlash madaniyatini shakllantirish va ularning ma'naviy-axloqiy kompetensiyasini tizimli ravishda rivojlantirishga alohida e'tibor qaratilmoqda.

Kompetentlik va kompetensiya bir-biridan ajralib turadigan tushunchalardan biridir. Kompetentlik - faoliyatda nazariy bilimlardan samarali foydalanish, yuqori darajadagi kasbiy malaka, mahorat va iqtidorni namoyon eta olishi bilan belgilanadi. Ya'ni shaxsning biror faoliyat bo'yicha olgan ma'lumoti, ko'nikmasi, qobiliyati va tajribasidan iboratdir. Boshqacha qilib aytganda, uni ma'lum bir faoliyat turini bajarish qobiliyati deb ham tushiniladi. Kompetensiya (lotincha. "compitentino") so'zidan olingan bo'lib to'g'ri kelaman, erishaman degan ma'noni anglatadi. Bilim, malaka va shaxsiy sifatlarni biror sohada namoyon bo'lishidir. Kompetentlik» - tushunchasi esa, shaxsning doimo o'sib boruvchi tasnifi bo'lib, real hayotiy vaziyatlarda yuzaga kelgan muammolarni yechish qobiliyati, o'z bilimi, o'quv va hayotiy tajribalari, qadriyatlar va qiziqishlarini unga safarbar etish imkoniyatlari hisoblanadi. Kompetensiya o'z bilimlarini tinmay boyitib borish, yangi axborotlarni o'rganish, shu kun va davr talablarini his etish, yangi bilimlarni izlab topish mahoratini, ularni qayta ishlashni hamda o'z amaliy faoliyatida qo'llashni talab qiladi. Kompetensiya egasi bo'lgan mutaxassis muammolarni yechishda o'zi o'zlashtirib olgan, aynan shu sharoitga mos metod va usullardan foydalanishni yaxshi bilishni hozirgi vaziyatga munosib bo'lgan metodlarni tanlab olib qo'llashi, to'g'ri kelmaydiganlarini rad etishi, masalaga tanqidiy ko'z bilan qarashi kabi ko'nikmalarga ega bo'ladi.

Talabalarda ma'naviy kompetentlikni rivojlantirishning pedagogik xususiyatlari. Talabalarda ma'naviy kompetentlikni rivojlantirish – ularning axloqiy, estetik, madaniy va ruhiy jihatdan yetuk shaxs sifatida shakllanishiga xizmat qiladi. Bu jarayon pedagogik yondashuvlar, metodlar va muhit bilan bog'liq bo'lib, quyidagi asosiy xususiyatlarga ega:

1. Tarbiya va ta'limning uzviyligi. Ma'naviy kompetentlikni rivojlantirish faqat nazariy bilim berish bilan cheklanmay, balki tarbiya jarayoni bilan ham mustahkamlanishi lozim. Pedagoglar ta'lim mazmuniga axloqiy qadriyatlar, milliy urf-odatlar va insonparvarlik tushunchalarini singdirishlari kerak.

2. Shaxsiy namuna va ijtimoiy muhitning ta'siri. O'qituvchi va jamiyat namunalari talabalarning ma'naviy rivojlanishida hal qiluvchi rol o'ynaydi. O'qituvchilar o'zlarining axloqiy fazilatlar, odob-ahloqi va madaniyati bilan talabalarga namuna bo'lishlari zarur.

3. Mustaqil fikrlash va tahlil qilish ko'nikmalarini shakllantirish. Talabalar ongli ravishda o'z qarashlarini shakllantirishi, axloqiy-ruhiy mezonlarni anglab yetishi



Date: 25th January-2026

uchun ularda tanqidiy va mustaqil fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirish zarur. Bu esa turli bahs-munozaralar, tahliliy topshiriqlar va kreativ yondashuvlarni qo'llash orqali amalga oshiriladi.

4. O'z-o'zini anglash va o'zini rivojlantirishga yo'naltirish. Talabalarga o'z qadri-qimmatini va mas'uliyatini anglashga yordam berish ma'naviy kompetentlikni rivojlantirishning muhim jihatlaridan biridir. Shu maqsadda psixologik treninglar, refleksiya mashg'ulotlari va shaxsiy rivojlanishga yo'naltirilgan dasturlar qo'llanilishi mumkin.

5. Innovatsion ta'lim texnologiyalaridan foydalanish. Raqamli texnologiyalar va interaktiv metodlarni qo'llash orqali talabalarga ma'naviy qadriyatlarini singdirish samaradorligi oshiriladi. Xususan, virtual muhit, o'yinli ta'lim, multimediya resurslari va onlayn ta'lim platformalaridan foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi.

6. Integrativ yondashuv. Ma'naviy kompetentlik faqat ma'naviyat va tarbiya fanlari doirasida emas, balki barcha fanlar va amaliy mashg'ulotlar orqali rivojlantirilishi lozim. Masalan, adabiyot, tarix, san'at va falsafa fanlari orqali ma'naviy qadriyatlar mustahkamlanadi.

Talabalarining ma'naviy kompetentligini rivojlantirish pedagogik jarayonning ajralmas qismi bo'lib, ta'lim-tarbiya jarayonining barcha bosqichlarida amalga oshirilishi kerak. Shaxsiy namuna, zamonaviy ta'lim texnologiyalaridan foydalanish, mustaqil fikrlashni rivojlantirish va integratsiyalashgan yondashuv orqali talabalar jamiyatning ma'naviy yetuk a'zolariga aylanishlari mumkin.


Talabalarda ma'naviy kompetentlikni rivojlantirish masalasi xorijiy pedagogika va psixologiya fanida keng o'rganilgan. Ushbu yo'nalishda tadqiqot olib borgan mashhur olimlardan biri L. S. Vygotskiy madaniy-tarixiy rivojlanish nazariyasi asosida ta'lim va tarbiya jarayonining ijtimoiy muhit va muloqot orqali shakllanishini tushuntirgan. U axloqiy va ma'naviy kompetentlikni rivojlantirish insonning ijtimoiy o'zaro ta'siri orqali sodir bo'lishini ta'kidlagan. AQSHlik olim J. Dewey pragmatik pedagogika asoschisi bo'lib, ta'limni real hayot bilan bog'lash kerakligini ta'kidlagan. U ma'naviy kompetentlikni rivojlantirish uchun ta'lim jarayonida faoliyat orqali o'rganish (learning by doing) yondashuvini taklif qilgan. B. S. Bloom ta'lim maqsadlari taksonomiyasini ishlab chiqib, inson shaxs sifatida rivojlanishi uchun bilim, ko'nikma va qadriyatlarning muhimligini ta'kidlagan. U axloqiy va ma'naviy kompetentlikni rivojlantirish uchun ta'lim jarayonini turli bosqichlarga ajratish kerakligini ilgari surgan. L. Kohlberg axloqiy rivojlanish nazariyasini ishlab chiqib, insonning axloqiy qarorlari va qadriyatlari bosqichma-bosqich rivojlanishini ko'rsatgan. U ta'lim jarayonida ma'naviy kompetentlikni shakllantirish uchun tanqidiy tafakkur va muhokama asosida axloqiy dilemmalarni hal qilish usulini tavsiya qilgan. Braziliyalik olim P. Freire ozod qiluvchi pedagogika g'oyasini ilgari surib, ta'limni faqat bilim berish emas, balki inson shaxsiyati va ijtimoiy ongini rivojlantirish vositasi sifatida ko'rgan. Uning fikriga ko'ra, ma'naviy kompetentlikni rivojlantirish uchun talabalar mustaqil fikrlashga o'rgatilishi lozim. E. Erikson shaxsiy rivojlanish bosqichlari nazariyasida insonning yoshlik davridagi ma'naviy va axloqiy shakllanishi muhimligini ta'kidlagan. U yoshlarning ma'naviy kompetentlikni



Date: 25th January-2026

rivojlantirishida ijtimoiy identifikatsiya va rol modellarining ta'siri katta ekanligini ko'rsatgan. Germaniyalik tadqiqotchi J. Habermas kommunikativ harakat nazariyasi talabalarda muloqot va ijtimoiy muhit orqali ma'naviy kompetentlikni rivojlantirish zarurligini tushuntiradi. U axloqiy ongni shakllantirish uchun dialog asosidagi ta'lim modelini ilgari surgan. Xorijiy olimlarning ta'lim, axloqiy rivojlanish va ma'naviy kompetentlik bo'yicha tadqiqotlari shuni ko'rsatadiki, bu jarayon to'rtga bo'linadi. (1-rasm.)

Xorijiy olimlarning ta'lim, axloqiy rivojlanish va ma'naviy kompetentlik bo'yicha tadqiqotlari natijasi. 1-rasm.



Bu olimlarning tadqiqotlari talabalarda ma'naviy kompetentlikni rivojlantirish bo'yicha pedagogik metodlarni ishlab chiqishda muhim nazariy asos bo'lib xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Torrance, E. P. Creativity: A Continuing Research. Journal of Creative Behavior, 1988, vol. 22, pp. 1–14.
2. Gardner, H. Frames of Mind: The Theory of Multiple Intelligences. New York: Basic Books, 1983, 440 p.
3. Robinson, K. Out of Our Minds: Learning to Be Creative. Wiley, 2011, 304 p.
4. Guilford, J. P. Creativity. American Psychologist, 1950, vol. 5, pp. 444–454.
5. Runco, M. A., Jaeger, G. J. The Standard Definition of Creativity. Creativity Research Journal, 2012, vol. 24, no. 1, pp. 92–96.
6. Панжизода Х. Ситуация насилия и притеснения в семье на примере Узбекистана. Социология и право". ISSN 2219-6242 (Print) . №3. Москва. Социология и право. 2025. Т. 17. No 3. – С. – 336-344.
7. Quzmanova G. "O'quvchilarning ijtimoiy kompetentligini ijtimoiy tarmoqlar vositasida rivojlantirishning nazariy va amaliy jihatlari" // Ta'lim va innovatsion tadqiqotlar. 2022. № 9. <https://doi.org/10.53885/edinres.-B.193>.

Date: 25th January-2026

8. Mamurov B.B., Davronov I.E. Pedagogik kompetentlik. “Durdona” nashryoti. Buxoro. 2021. 10-b.



International Conferences
Open Access | Scientific Online | Conference Proceedings

